



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th June 2025

YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA JADIDCHILIK G‘OYALARINING TUTGAN O‘RNI

Xolbekova Sayyora Madaminjon qizi

Farg‘ona davlat texnika univeersiteti

Oliy matematika kafedraasi assistenti

Anotatsiya:

ushbu maqolada jadidlar tomonidan ilgari surilgan g‘oyalarni hozirda vatanimiz taraqqiyoti yo‘lida egallagan o‘rni hamda ularning tahlili haqida fikrlar keltirilgan va ilmiy asoslangan

Kalit so‘zlar: jadidlar, g‘oya, ilm-fan, tarbiya, islohot, milliy tiklanish, madaniy-marifiy ishlar va mustaqillik

Annotation: in this article presents and scientifically substantiates the ideas put forward by jadids about their role in the development of our motherland and their analysis

Keywords: jadids, idea, science, upbringing, reform, national revival, Cultural-Religious Affairs and independence

Аннотация: В этой статье представлены и научно обоснованы идеи, выдвинутые джадидами, о роли, которую они в настоящее время играют в развитии нашей Родины, а также их анализ

Ключевые слова: джадиды, идея, наука, воспитание, реформа, национальное возрождение, культурно-просветительские работы и независимость

Jadidchilik g‘oyalari Turkiston xalqini Chor Rossiya mustamlakasidan ozod qilish hamda turkiy xalqlarning ma’naviy hamda ma’rifiy, diyin va dunyoviy, iqtisodiy va siyosiy qarashlarini va fikrlashlarini rivojlantirish hamda o‘zgartirish uchun xizmat qiladi. Nega jadidchilik faoliyati boshlangan degan savol tug‘ilishi tabiiy bu savolga javob berishda jadid so‘ziga alohida to‘xtalishimiz kerak. Jadid so‘zining lug‘aviy ma’nosi arabcha “yangi” degan ma’noni bildiradi. Demak yangi fikr va yangi g‘oya jadidchilik harakatining asosidir. Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek “Jadidlar g‘oyalari yangi O‘zbekiston g‘oyalari bilan hamohangdir”. Bu oddiygina bo‘lib



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econferences.com

20th June 2025

ko‘ringan fikrning ostiga nazar tashlaydigan bo‘lsak qanchalik kuchli ma‘no anglatishini ko‘rishimiz mumkin. Milliy mafkuramizni kuchaytirish uchun, hozirgi tahlikali davrda har qanday ma‘naviy tahdidlarga tayyor bo‘lishimiz hamda mutaqil vatanimizni yanada rivojlantirish uchun tinmay harakat qilishimiz, jadidlarimizdan qolgan ma‘naviy merosni yaxshi o‘rganib o‘z g‘oyalimiz bilan umumlashtirsak bizdan kuchli xalq bo‘lmaydi. Jahonda yuz berayotgan har bir holatni ongli ravishda tahlil qilishimiz va ularga nisbatan o‘z fikrimizni bera olishimiz uchun ma‘naviy sog‘lom va yetuk fikrlaydigan yoshlar bo‘lib yetishmog‘imiz zarur. Yangi O‘zbekiston rivojlanish yo‘lida tinmay harakat qilar ekan biz yoshlar yurtimizning kelajagi ekanligimizni tushungan holda, yurtimizning ertangi kuni ko‘p jihatdan ma‘nan va aqlan yetuk yoshlar qo‘lida ekanligini bilgan holda shunga yarasha o‘qib o‘rganishimiz va bizlarga yaratib berilayotgan har qanday sharoitlardan unumli foydalanishimiz kerak.

XIX asrda ma‘rifatparvarlik g‘oyalari bilan nom olgan va XX asr boshida rivojlangan jadidchilik harakatining taraqqiyparvar nomoyondalari – Behbudiy, Fitrat, Cho‘lpon, Munavvar Qori, Abdulla Avloniyalar ijodi va faoliyati yana ham kuchaydi. Jadidlar Turkistondagi xalqlarni birlashtirish va butun o‘lkaning milliy mustaqilligi uchun kurash g‘oyasini ilgari surdilar. Milliy mustaqillik bu – davlatning ichki va tashqi ishlarda boshqa davlatlarga qaram bo‘lmay faoliyat ko‘rsatishi. Mustaqil tamoyillariga rioya etish davlatlararo o‘zaro munosabatlarda yetakchi, hukmron qoidadir. Har bir davlatning mustaqilligini tan olish o‘zaro tinchtotuv yashashning prinsiplaridan biridir. Jadidchilarimiz xalqimizning tinch va totuv, hech kimga qaram bo‘lmay yashashi uchun o‘z jonlaridan kechishdi. O‘z avlodlarining kelajagi uchun o‘sha davrdagi siyosiy tuzumga qarshi chiqib bo‘lsa ham yangi usul maktablarini ochib, yosh bolalarni o‘qita boshlashdi. O‘z fikrlarini erkin hech kimdan qo‘rqmay baralla ayta olishdi. Bu darajada yetib kelish uchun ularda qanchalik vatan tuyg‘usi kuchli ekanligini anglash qiyin emas. Biz kimmimiz kimlarning avlodi ekanligimiz hozirgi tinch va totuv hayotimiz nimalar evaziga qurilganini tushunib yetishimiz zarur.

Turkiston jadidlari chor hukumati istibdodidan qoloq ahvolga tushib qolgan Turkiston mahalliy aholini, jumladan o‘‘sib kelayotgan yoshlarni ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma‘rifiy turmushini, ong-saviyasini ko‘tarish, taraqqiy



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econferences.com

20th June 2025

ettirish maqsadida juda katta madaniy ishlarni olib bordilar. Mahmudxo‘ja Behbudiy ta’kidlaganidek: “Har bir mamlakatda islohot va madaniyat asbobig‘a tasavvul (vosita) va tashabbus etmoqlik harakati u mamlakatning yoshlari tarafidan zuhur eta boshlagani kabi, bizning Turkistonda ham madaniyat eshigi manzalasida bo‘lgan maktabi ibtidoiy ila intiboh va islohot jarchisi bo‘lgan milliy matbuot qayratlu yoshlarning harakati maorif parvaronlarini soyasida vujudga keldi”.

Sog‘lom farzandlarni tarbiyalash uchun o‘qib-o‘rganib ilmi, ma’rifatli, eng asosiysi esa ota-onalar o‘z vaqtida farzandlarini zamonaviy fanlarini egallashga yordam berishlarini ta’kidlaganlar. Munavvarqori Abdurashidxonov bolaning ta’lim va tarbiya olishida ota-onaning javobgarligi haqida so‘z yuritib, o‘z farzandining ma’rifatli bo‘lishi uchun qo‘llaridan kelgancha harakat qiladigan zotlar mavjudligini ta’kidlagan.

Jadidlar ota-onalar o‘z farzandlarining tarbiyasi bilan shug‘ullanib, ularni maktab va madrasalarga tayyorlab berishlarini ta’kidlaganlar. Maktab va madrasalarda o‘qib, ularni tugatib, yoshlar rivojlangan davlatlarning o‘quv yurtlarida bilimlarini oshirib, zamonaviy ilmlarni egallashlari kerakligini uqtirganlar.

Jadallik bilan rivojlanish yo‘lida ildam qadam tashlayotgan davlatimizga vas hu davlatda o‘sib kelayotgan yosh avlodga ta’ssir qiladigan yot g‘oyalar yetarlicha. Shuning uchun milliy o‘zlikni anglash, mafkuraviy tahdidlar qanday bo‘lishini tushuntirish maqsadida maktab dasturiga ma’naviyat soatlari va vatan tuyg‘usi kabi fanlarning kiritilishi bejiz emas.

Bir davlatni bo‘ysundirish uchun unga qarshi urush e’lon qilishni keragi yo‘q, o‘sha davlatning tili, dini, ma’naviyati va qadriyatlarini yo‘q qilishning o‘zi yetarli. Ma’nan yetuk va kuchli bo‘lmagan davlatning xalqi qaramlikka mahkumdur. Buyuk mutafakkirlarimizdan biri Abdulla Avloniy ta’kidlaganidek “Tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo najot, yo falokat yoki saodat masalasidir”. Shunday ekan yoshlarga avvalo tarbiya berishda xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘ymasligimiz kerak. O‘sib kelayotgan yosh avlodga yurtimizning kelajagi, yorqin hayotimizning poydevorlari sifatida qarab tarbiya bersak bu biz uchun eng katta yutuqlarimizdan biri bo‘ladi. Jadidlarimiz ham nega xalqning ma’naviyatini o‘stirishga, ularni uyqudan uyg‘otishga harakat qilishgan, chunki ular o‘z avlodlarini kelajakda kimgadur qaram



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfséries.com

20th June 2025

emas balki, ozod va farovon davlatda yashashlarini xoxlashgan va bu ishlarni amalga oshirish uchun tinimsiz harakat qilib, bor kuchlarini bir maqsad yo'lida safarbar etishgan. Ilm-fan, ta'lim va tarbiyaning har anday maslada ustuvor ekanligini biz jadidlarimiz harakatidan ham bilishimiz mumkin. Ilm-fan rivojlansa yurt rivojlanadi, ilm-fan bilan ma'naviyat birgalikda rivojlansa esa davlat o'z milliy tiklanishiga va milliy mustaqilligigaga ega bo'ladi. Bu masalalarning qanchalik ustuvor ekanligini yurtboshimizning savollaridan bilishimiz mukin. Ularning savollari quyidagicha bo'ldi. Biz bugungi keskin sharoitda g'oyaviy-mafkuraviy sohada raqobatga tayyormizmi? Va quyidagicha javob berdilar: "bu savollar oddiy savollar emas. Xalqimizni o'ylashga majbur qiladigan va tashvishga soladigan savollar. Agar biz bu yorug' dunyoda "o'zbek", "o'zbekistonlik" degan nomlar bilan yashab qolishni istaydigan bo'lsak, bunday savollarga javob topishimiz va amaliy harakatlarimizni boshlashimiz kerak. Aks holda ertaga kech bo'ladi".

Yurtboshimizning yana bir fikrlarini misol tariqasida keltiramiz: "Buyuk ma'rifatparvar bobolarimiz tomonidan ilgari surilgan g'oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-ma'rifiy va huquqiy-axloqiy qarashlar, turli millat va elatlar o'rtasida bag'rikenglik va hamjihatlik tamoyilini qaror toptirish bilan birga, milliy manfaatni himoya qilishga qaratilgan intilish hozirgi murakkab va tahlikali zamonda barchamiz, avvalo, yoshlar uchun chinakam ibrat namunasidir. Ularning hayoti va jasorati bugungi tinch va osoyishta kunlarga osonlik bilan erishilmaganini eslatib, milliy istiqlolimizni, jonajon Vatanimizni ko'z qorachig'iday asrashga doimo da'vat etib turadi"

Nega aynan bu savollarga javob jadidchilar harakatlari va fikrlari bilan bog'landi? Chunki jadidchilar birinchi navbatda manaviyat sohasini rivojlantirish uchun harakat qilishgan, bu oqim vakillari taraqqiyot uchun kurashish, o'z tili va dinini yot g'oyalardan himoya qilish maqsadida turkiy tillardagi adabiyotlarni ko'paytirishga, ilm-fanni rivojlantirishga hamda ayollar va erkaklarning tengligini ta'minlash uchun kurashishgan. Shuning uchun jadidlar "taraqqiyparvrlar" deb ham atalgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Vatan-ostonadan boshlanadi. Bu esa bizning oilamiz, mahallamizdan boshlanadi degani. Har bir oila o'z farzandlariga vatan muqaddas dargoh ekanligini faqat so'zlar bilan emas, balki, o'z amaliy ishlari bilan farzandlariga na'muna bo'lsa, ko'proq kitob o'qisa yurtimizning rivojlanishi



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th June 2025

birinchi navbatda har bir komil shaxsga bog'liqligini his qilgan holda o'z farzandlariga tarbiya bersa, tarbiya jarayonida buyuk mutaffakkirlarimizning o'g'itlari va farzand tarbiyasi haqida bergan maslahatlaridan unumli foydalanadigan bo'lsa bundan ota-onaning farzandi shubhasiz vatanimiz taraqqiyoti uchun o'z hissasini qo'sha oladigan jasur va mard, har qanday manaviy tahdidlarga qarshi chiqqa oladigan, vayronkor g'oyalarni bunyodkor g'oyalarga aylantirib bema'lol targ'ib qila oladigan shaxs sifatida shakllanadi. Shuni unutmashimiz zarurki, hozirgi tinch va faravon hayotimizni bizdan keyingi avlodlarga ham hozirgi holatdan ko'ra yaxshiroq holatda yetkazish har birimizning burchimizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. –T; O'qituvchi, 1992.
2. Sharipov R. Turkiston jadidchilik harakati tarixidan. –T; O'qituvchi, 2002.
3. Xolboyev S. Milliy universitetning tarixiy ildizlari va tashkil topishi.T; Sharq, 2003.
4. Dolimov U. Turkistonda jadid maktablari.–T; Universitet, 2006.